

GARRI POTTER VA SARIQ DEVNI MINIB ASARLARIDA MAGIK VA REALISTIK HAYOT UYG'UNLIGI

Rajabov Axtam Uktamovich

Tiqxmmi Mtu Buxoro tabiy resurslarni boshqarish instituti

axtamr@inbox.ru

Jalilova Lola Jalilovna

BuxDU, PhD dotsent

lolajalilova7@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Britaniyaning mashhur bolalar asarlari yozuvchisi Joan Roulingning butun duynyo bo'ylab eng ko'p o'qilgan asarlaridan biri Garri Potter haqidagi asosiy faktlar, boshqa tillardagi tarjimalari, turli muharrirlar hamda yozuvchi va jurnalistlarning asar haqida bildirgan fikrlari aks ettirilib, Joan Roulingning sehrgar bola haqidagi asari mashhurligi sabablari o'rin olgan. Bundan tashqari, ushbu asarning sakkiz qismining har biri haqida qisqacha ma'lumot berilib, muxlislar e'tiroflari ta'kidlab o'tilgan hamda boshqa fentezi janridagi asarlar bilan qiyoslangan.

Kalit so'zlar: Fantaziya, vizual tarjima, kviddich, snich, sarguzasht asar, magl, vol de mort, interaktiv o'yinchoqlar.

Аннотация: В этой статье представлены основные факты о Гарри Поттере, одном из самых читаемых произведений известной британской детской писательницы Джоан Роулинг во всем мире, его переводы на другие языки, мнения различных редакторов, писателей и журналистов о произведении и причины популярности рассказа о маленьком волшебнике. Кроме того, дается краткое описание каждой из семи частей этого произведения, выделяются признания поклонников и сравниваются с другими произведениями в жанре фэнтези.

Ключевые слова: фэнтези, визуальный перевод, квиддич, синч, преключение, магл, вол де морт, интерактивные игрушки.

KIRISH

Garri Potter haqida jami sakkista kitob – “Garri Potter va falsafa toshi”, “Garri Potter va maxfiy xona”, “Garri Potter va Azkaban mahbusi”, “Garri Potter va olovli jom”, “Garri Potter va qaqnus ordeni”, “Garri Potter va shahzoda tilsimi”, “Garri Potter va ajal tuhfalari” yozilgan. Sarguzasht asar tarkibidagi yettita kitobning mazkur yilgacha 500 millionga yaqin nusxasi

sotildi. Birgina “Garri Potter va shahzoda tilsimi” (oltinchi kitob) kitobi faqatgina AQShning o‘zida dastlabki 24 soat ichida 6,9 million nusxasi sotilgan. Yana bir qiziq ma’lumot, kitobning hatto sotilish tezligi ham aniqlangan: bir daqiqada 80 ta. Asar eng xaridorgir kitoblarning ro‘yxatidan tushmay kelmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik usulidan foydalanildi. Garri Potter sarguzashtlar voqealari “Garri Potter va falsafa toshi”, “Garri Potter va maxfiy xona”, “Garri Potter va Azkaban mahbusi”, “Garri Potter va olovli jom”, “Garri Potter va qaqnus ordeni”, “Garri Potter va shahzoda tilsimi”, “Garri Potter va ajal tuhfalari” kitoblarida obyektiv ochib berildi. Garri Potter yashagan davr tarix nuqatayi-nazaridan tahlil etildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Britaniyalik taniqli adiba Joan Keyt Rouling qalamiga mansub Garri Potter haqidagi bestseller romanlarning birinchisi — “Garri Potter va falsafa toshi” ingliz tilidan o‘zbek tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilindi. Bu haqda tarjimon Jo‘raali Solijonovning o‘zi “Daryo”ga ma’lum qildi.

140 betdan iborat tarjima Termizdagi “Surxon-nashr” nashriyoti tomonidan 2015-yilda nashr qilindi. Taqrizchilar — filologiya fanlari doktori Poyon Bakirov, filologiya fanlari nomzodi Nasiba Panjiyeva, Termiz davlat universiteti o‘qituvchilari Abdulla Xudoyqulov va Shahnoza Qayumova bo‘lgan.

“Garri Potter va falsafa toshi” romanini ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishda O‘zbekistonda endi rivojlana boshlagan yangi “vizual tarjima” (rasmlar qo‘shib tarjima qilish) usulidan foydalanilgan.

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Surxondaryo viloyat bo‘limi rahbari Mengnor Allamurodov asar haqida shunday dedi: “Joan Keyt Rouling qalamiga mansub mazkur fantastik sarguzasht roman jahon bolalar adabiyoti gultojidir. Uning filmlari haqida barchamiz eshitgan bo‘lsak-da, uning o‘sib kelayotgan o‘zbek farzandlari uchun mos keluvchi ona tilimizdagi bevosita tarjimasi yo‘qligi ko‘ngilni xira qilar edi. 2014-yilning dekabr oyida ushbu roman muallifiga uning tarjima qilinayotganligi haqida rasman xabar jo‘natildi va adibaning e’tirozi yo‘qligidan juda mamnun bo‘ldik. Yozuvchilar uyushmasi tomonidan “Yosh tarjimon” maqomi berilgan Jo‘raali Solijonovning shu kungacha ta’lim sohasida ikki bora xalqaro grant sovrindori hamda ikkita ijtimoiy va ta’limiy loyiha asoschi va boshqaruvchilaridan biri, shuningdek, bir necha hikoyalarning ham tarjimoni. Uning bu asarni ingliz tilidan o‘zbek tiliga bevosita tarjimasi alohida e’tiborga molik, bu esa Surxondaryo viloyatida shu sohadagi rasman tan olingan ilk badiiy ish hisoblanadi, ya’ni viloyatimizda ingliz tilidan o‘zbek tiliga bevosita tarjima jarayoni boshlandi. Bu barchamiz uchun bir yutuq, deb bilaman. Tarjima asardagi so‘zlarning sodda va bo‘yoqdorlik xususiyatlaridan

foydalanilgani, she'riy qismlarining qolipni saqlab qola olganligi har qanday o'zbek o'quvchisi uchun osongina tushunarli bo'la oladi".

Sakkizta kitobdan iborat roman dunyo bo'ylab jami 75 ga yaqin tilga tarjima qilingan. Azarbayjon, ukrain, arab, urdu, hind, latv va boshqa tillar shular jumlasidandir. Kitobning dastlabki qismi hatto lotin va qadimgi yunon tillariga ham tarjima qilingan. Endi esa bu asar tarjima qilingan tillar orasiga o'zbek tili hamqo'shildi va uni hozirgi o'zbek adabiy tilida o'qish imkoniyati paydo bo'ldi.

Buyuk Britaniyada chop etiladigan "The Telegraph" gazetasi Joan Rouling qalamiga mansub "Garri Potter va falsafa toshi" romanini mamlakatning so'nggi chorak asr tarixidagi eng yaxshi asari deb topdi.

Gazeta tahririyati minglab o'quvchilar o'rtasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rovdan keyin ana shunday xulosaga keldi. Britaniyaning "The Telegraph" gazetasi hamda "Waterstone's" kitob do'konlari tarmog'i bilan hamkorlikda o'tkazgan so'rovlar xuddi shunday natija bergan. So'rov tashkilotchilari tomonidan taqdim etilgan eng yaxshi 100 ta asardan o'quvchilar aynan Joan Roulingning "Garri Potter va falsafa toshi" romanini tanlashi bejiz emas. "Waterstone's" vakili Roulingning asari muvaffaqiyati haqida to'xtalib, shunday deydi: "Bu roman so'nggi o'nyil mobaynida juda ko'p o'quvchilarni o'ziga jalb etgan asar bo'ldi. "Garri Potter" kitobning nimalarga qodirligi haqidagi tasavvurlarni o'zgartira oldi".1

Kitobning oxirgi qismlari kitobxonlar tomonidan shu qadar intilqlik bilan kutilganki, "Garri Potter va shahzoda tilsimi" deb atalgan oltinchi kitob chop etilganining dastlabki 24 soati davomida deyarli 9 mln nusxasi sotildi. Uzoq kutilgan oxirgi kitob "Garri Potter va ajal tuhfalari" esa 1 kun davomida 11 mln nusxada sotilib, kitob tarixida eng tez sotilgan deb topildi.

"Garri Potter" asarining ta'siri shu qadar kattaki, asar muallifi Rouling tomonidan kashf etilgan so'zlar ingliz tili lug'ati Oksfordga kiritilib, umumxalq foydalanishiga kirgan.

Uelsning janubiy qismidagi maktablardagi o'quvchilar orasida jismoniy tarbiya darslarida kviddich o'ynash an'anaga aylanmoqda, deb xabar berdi "Daily Telegraph" gazetasi. Bolalar va o'smirlar o'rtasida ancha mashhur bo'lgan ushbu o'yin Joan Rouling qalamiga mansub asar qahramoni Garri Potter nomi bilan bog'liq. O'quv maskanining jismoniy tarbiya o'qituvchisi uchar supurgi va sehrlangan koptoklar yordamida o'ynaladigan kviddichni ancha soddalashtirib, real hayotga moslashtirdi. "Kinodagidan farqli o'laroq, jamoalarda mitti uchar koptok(snitch)ni tutuvchi o'yinchi va yugurishga xalaqit beradigan supurgi yo'q, ammo quvuvchi, darvozabon va ovchi vazifasini bajaradigan ishtirokchilar yordamida ham musobaqalar ancha qiziqarli o'tmoqda", — deydi pedagog. Ushbu o'yin orqali o'quvchilarda ko'z bilan mo'ljalga olish layoqatini rivojlantirish, tezlik olish reaksiyasini kuchaytirish mumkin. Yangi qabul qilingan "5x60" dasturida Uelsdagi barcha maktablarda jismoniy tarbiya soatlari haftasiga besh soatgacha ko'paytirilib, kviddichni yanada ommalashtirish maqsad qilingan.

“Garri Potter” kitobi nashr etila boshlangan dastlabki davrda juda ko‘plab ijobiy fikrlarga sazovor bo‘ldi. “Garri Potter va falsafa toshi” nomi bilan chop etilgandastlabki kitob “The Scotsman” kabi shotland gazetalari e’tiboriga tushib, “haqiqiy klassik asar” degan nomga sazovor bo‘ldi. “The Glasgow Herald” gazetasi esa kitobni “sehrli kitob” deya maqtaydi. Tez orada chet el maqtovarlarga ingliz gazetalari ham qo‘shilib, “The Mail on Sunday” hamda “The Sunday Times” gazetalari kitobni Roald Dal davridan buyon chop etilgan eng yaxshi badiiy asar deya atashadi.

“The Times” gazetasi “Garri Potter” asarini nafaqat bolalar adabiyoti tarixidagi eng ko‘p sotilgan bestseller, balki eng yaxshi adabiy tuhfadir deya ta’kidlaydi. “Vogue” jurnali esa J.K.Roulingning Garri Potter haqidagi kitoblari bolalarga allaqachon unut bo‘lgan kitob o‘qishga bo‘lgan mehrni qaytardi deydi. Rouling haqiqiy kult asar yarata oldi va bir soat ichida mashhurga aylandi.

“Garri Potter va qaqnus ordeni” deb atalgan beshinchi kitob chop etilishi bilan kitob seriyalari endi nafaqat maqtovarlar balki tanqidiy fikrlarni ham qarshi oldi. Adabiyotshunos olim va tanqidchi Garold Blum kitobni shunday tanqid qildi: “Roulingning boshi o‘lik metaforalar va bir xil kuyni chaladigan plastinkalar bilan to‘laligi sababli u boshqa xil yozish usuliga ega emas”.

Ursula Le Gvin asar haqida yaxshi fikrda emasligini aytib, “hamma kitobxonlar dastlabki “Garri Potter” kitobining originalligiga qoyil qolayotgan bir paytda, men uning naqadar chalkash, stilistik jihatdan sodda, tasavvuriy ko‘chirma vaaxloqiy jihatdan kam ahamiyatga egaligini payqadam” deya ta’kidlaydi.

Xo‘sh, nega endi allaqanday sehr-jodular haqidagi kitob bu darajada mashhur bo‘lib ketdi? Axir bu kabi asarlar dunyo bo‘ylab oz-muncha yaratilayotgani yo‘q. Qolaversa, uchar supurgilar haqidagi filmlar ham kam emas. Gap shundaki, jamoatchilikning aksariyat qismi asar haqida ijobiy fikr bildirgan. O‘quvchilarning ko‘pchiligi bugungi dunyoning juda yalang‘och va primitiv bo‘lib qolganligini aytib, ko‘ngil allaqanday sirlilikni, biroz sehrgarlikni istashini ta’kidlashdi. Garri Potter haqidagi kitoblar jahon bolalar adabiyotining eng yaxshi asari sifatida baholandi. Mutaxassislarning aytishicha, murakkab texnika, fazo janglari, kimyoviy laboratoriyalarda yaratilgan allaqanday maxluqchalar haqidagi kitoblar, film va multfilmlar, g‘arbda an’anaga aylangan komikslar so‘nggi yillarda juda ko‘payib ketgan. Joan Ketlin asarlari esa bolalarga biroz yengillik beradi. Ularning xotirjam fikrlashiga ko‘maklashadi.

Fikrimizcha, asarning yana bir yutug‘i shundaki, ular jajjilarga orzu qilish imkonini beradi. Axir hammamiz ham yoshligimizda sehrli qalpoqchamiz yoki tayoqchamiz bo‘lishini istaganmiz-ku. Qachondir uni topib olishga ishonganmiz. Uchar supurgida osmonga parvoz etishni xohlamaganlar dunyo bolalari orasida juda kam topilsa kerak. Lekin Garri Potter faqat bolalar kitobi bo‘lib qolmadi. Uning yana bir muvaffaqiyati shunda bo‘ldiki, kattalar ham bu asar bilan jiddiy qiziqib qoldi. Aslida har bir insonda bolalik orzulari yashirin. Shu sababli,

ba'zan eng jiddiy odamning ham multfilm ko'rib o'tirganiga guvoh bo'lib qolamiz. Axir u ham chindanbiror sehrgarlikni ko'rishni juda istaydi. Biroq bolalardan farqi shundaki, u bunday bo'lmasligiga o'zini allaqachon ishontirib qo'ygan.

Kattalar bu kitob bilan chindan-da qiziqib qolganligi aniq. "Garri Potter va falsafa", "Garri Potter va fan" kabi asarlarning yaratilishi — buning yaqqol dalili. Kattalar o'z qiziqishlarini asardan falsafa izlash yo'li bilan «oqlashadi». Tadqiqotchilar asarni durdona, deb baholash fikridan yiroq. Ular har holda Joan Ketlinni Shekspirga qiyoslashmayapti. Bilasizmi, Mark Tven o'z asarlariga baho berar ekan, "mening asarlarim vinodan ko'ra ko'proq suvga o'xshaydi, lekin suvnihar doim ichsa bo'ladi", degan edi. Mutaxassislarining asarga bergan turlicha baho va talqinlarini ham ana shu qarashlar manzarasida tasavvur qilish, balki to'g'ridir. Ular Garri Potter sarguzashtlarini haqiqiy falsafa, deb izohlayotgan o'rinlar ham yo'q emas. Bir jihatdan bu to'g'ri. Chunki bolalarni nega, nimaga, degan savollar qurshovida qoldirayotgan asar ularni borliq haqiqatlarini bilishga undaydi.

"Falsafa esa hayratdan boshlanadi", - degan edi Platon. Mutaxassislar Garri Potter haqidagi kitoblar fan qonuniyatlarini inkor etayapti, degan xulosani ham berishgan. Yerning tortishish kuchini yenggan bolakaylar obrazida shu maqsad bormi-yo'qmi, buni aytish mushkul. Bu o'rinda Artur Klarkning "Yetarli darajada rivojlangan har qanday texnologiya magiyadan farq qilmaydi", degan fikrinikeltirish o'rinli bo'ladi. Negaki, qadimda yaratilgan oynai jahonnamo, uchar gilam kabi obrazlar oradan bir qancha vaqt o'tib, televizor, samolyot shaklida haqiqatga aylangan. Shu sababli, fan qonuniyatlari bilan inkor etish va orzu qilish imkoniyatini aralashtirib yubormaslik lozim. Chunki bugungi orzular ertaga ana shu fan uchun kutilmaganda ulkan xizmat qilishi mumkin.

Asarning dastlabki 3 qismi 28 mln nusxada sotilib, dunyo aholisini hayratga solarli songa yetdi. Muallif Rouling noodatiy ismli ajoyib qahramonlar, qiziqarli voqealar rivoji va ham tanish ham notanish atmosfera yarata oldi. Kitoblarning farqlovchi jihati shundaki, boshqa dunyoning g'ayrioddiy voqealari, kitobxonlarni yoshi, jinsi va ta'bidagi farqlarga qaramay birlashtiradi. Ko'p oilalarning ta'kidlashicha, katta farzandlari hali o'qishni bilmaydigan kichik ukalariga kitob o'qib berishdan charchaydilar. Northwestern Universitetining ingliz tili professori Kristofer Gerbert "Xuddi shunday voqea XIX asrda Charlz Dikkensning "Qadimiy buyumlar do'koni" asari e'lon qilinganda sodir bo'lgandi" deb aytadi. 1841-yilda Angliyadan kelgan kemanding dastlabki yo'lovchilari qirg'oqqa oyoq qo'yishlari bilankitobning ushbu mamlakatda hali chop etilmagan qismini o'qimagan odamlar ularni qurshab olib, "Kichkina Nel o'ldimi?" degan savolni berishgandi. Gerbertning hamkasbi Lourens Evans bu fikrlarga qo'shimcha tarzda, hatto xat-savodsiz odamlar ham Dikkensni o'qiganini ta'kidlab o'tgan. O'sha davrlarda o'qishni biladigan kishi boshqalarga kitobni o'qib bergan.²

"Garri Potter" asari yoshi katta kitobxonlar orasida ulkan shuxrat qozongan dastlabki asar emas, albatta. A.A.Milnning "Vinni Puh" asari, Roald Dalning kitoblari va K.Grahamning "Majnuntol shamoli" asarlari ham o'z davrida shunday mashhurlikka sazovor bo'lgan.

Noterdam Universitetidagi kutubxonalardan birining boshqaruvchisi bunday kitoblar haqida shunday deydi: “Aholining yoshi katta qismi bu kitoblarni o‘qib yoshlar allaqachon biladigan narsalarni o‘zlari uchun kashf etmoqdalar. Bolalar esa Rouling asarlaridan tashqari ham yana ko‘plab qiziqarli, sarguzashtlarga boy asarlar mavjudligini bilib olmoqdalar”. “Publishers Weekly” gazetasining bolalar muharriri Diana Robek Garri Potter kitoblari boshqa bolalar adabiyoti namunalari, xususan, fentezi va sarguzasht asarlariga katta ta’sir ko‘rsatayotganligini ta’kidlab o‘tgan.³

“Garri Potter haqidagi kitoblar oddiy asarlar emas, so‘z o‘yini va yangi kashfiyotlar dunyosidir” deb gap boshlaydi “Verbatim” jurnalidagi bir maqoladamuallif Jessi Randal. O‘z qahramonlari, maxluqlar, duolar va predmetlarni nomlashda J.K.Rouling lotin, fransuz va nemis so‘zlaridan, stilistik vositalardan va hazillardan foydalanadi. Masalan, Rouling asardagi oddiy odamlarni nomlashda qo‘llagan so‘z “magl” eski ingliz tilida “dum” degan ma’noni bildirgan, keyinchalik Amerika jargonida “marixuana” so‘zi o‘rnida qo‘llanilgan. Asardagi Voldemort obrazini nomlashda muallif ikkiyoqlama so‘z o‘yinini qo‘llagan. “Vole” so‘zi “kemiruvchi” degan ma’noni bildirsa, lotincha “mort” “o‘lim” so‘ziga to‘g‘ri keladi. Fransuz tilida “vol de mort” degan birikma mavjud bo‘lib, u “o‘limdan qochish” degan ma’noni bildiradi. Rouling qo‘llagan ba’zi ismlarni tushuntirish esa oddiy, masalan, Potter familiyasi Roulingning bolaladagi qo‘shnilariga tegishli bo‘lgan bo‘lsa, Miss Norris deya nom olgan mushuk Jeyn Ostinning “Mansfield Parki” asaridagir bir obraz nomidan olingan. Ba’zi ismlar Roulingning tilshunoslikni yaxshi o‘rganganini namoyon qiladi. Qahramonlardan biri Remus Lyupin nominingdastlabki qismi Rim shahrining asoschilari Remus hamda Romulus nomidan olingan bo‘lsa, Lyupin so‘zi lotincha “bo‘ri” degan ma’nodagi “lupus”dan kelib chiqqan.⁴

XULOSA

Sehrgar bola haqidagi asar 75ga yaqin tilga tarjima qilinib, butun dunyo aholisining eng sevimli kitoblari ro‘yxatidan joy oldi. “Garri Potter” asarining har yetti qismi mashhur tanqidchilar, yozuvchi va shoirlar, mualliflar tomonidan maqtovlaru tanqidlarga ko‘mib tashlandi. Kitob nafaqat bolalar balki ularning ota- onalari va boshqa yoshi katta kitobxonlar tomonidan ham sevib o‘qilishining sababi turlicha izohlanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Будур Н.В., Иванова Э.И. и др.Зарубежная детская литература. – М.:“Академия”, 1998, –304 с.
2. Детская литература//Под ред. Зубарева Е. – М.: Просвещение, 1989. – 399 с.
3. Allsobrook, Dr. Marian (18 June 2003). "Potter's place in the literary canon".BBC News. Retrieved 15 October 2007.
4. Byatt, A. S. (7 July 2003). "Harry Potter and the Childish Adult". The New YorkTimes.

- Retrieved 1 August 2008.
5. Uktamovich, Rajabov Akham, and Jalilova Lola Jalilovna. "THE PECULIARITIES OF PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE MAIN HERO IN J. ROWLINGS HEPTALOGY OF HARRY POTTER." *International Engineering Journal For Research & Development* 6 (2021): 5-5.
 6. Jalilova, Lola Jalilovna, and Rajabov Akhtam Uktamovich. "The Character of the Narrative and the Image of the Narrator in the Short Stories of Robert Benchley and James Thurber." (2020).
 7. Jalilova, L. J., and A. U. Rajabov. "Comic creation means in James Thurbers novel "the secret life of Walter Mitty"." *ISJ Theoretical & Applied Science*, 04 (72) (2019): 557-560.
 8. Rajabov, Akhtam, and Lola Jalilovna Jalilova. "Peculiarities of modern uzbek childrens literature (on the example of Khudoiberdi Tokhtaboyevs works)." *Scientific reports of Bukhara State University* 5.2 (2021): 169-177.
 9. Rajabov, A. O. "Jalilova LJ Psikhologizmi v detskoj literature." *Modern Scientific Research Journal*. London, United Kingdom 10 (2019): 360-365.
 10. Jalilova Senior Teacher, Lola. "NATIONAL SPECIFICITY OF AMERICAN SATIRICAL SHORT STORIES." *Philology Matters* 2020.2 (2020): 40-50.
 11. Jalilovna, Jalilova Lola, and Rajabov Akhtam Uktamovich. "A sense of humor as an essential component of pedagogical optimism." *International Journal on Integrated Education* 3.3 (2020): 29-34.
 12. Rajabov Akham Uktamovich, & Jalilova Lola Jalilovna. (2022). THE DEPICTION OF THE TEENAGERS` SOCIAL LIFE IN "HARRY POTTER". *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact Factor: 7.429, 11(04), 108–114. Retrieved from <http://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/view/402>
 13. Rajabov Akham Uktamovich, and Jalilova Lola Jalilovna. "THE ROLE OF PSYCHOLOGISM IN THE DEVELOPMENT OF A LITERARY GENRE". *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact Factor: 7.429, vol. 11, Mar. 2022, pp. 37-42
 14. Жалилова, Лола Жалиловна. "Сатира А. Бирса в свете фольклорных и литературных традиций." *На пересечении языков и культур. Актуальные вопросы гуманитарного знания* 1 (2016): 295-299.
 15. Rajabov Akham Uktamovich, and Jalilova Lola Jalilovna. "THE ROLE OF PSYCHOLOGISM IN THE DEVELOPMENT OF A LITERARY GENRE". *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact Factor: 7.429, vol. 11, Mar. 2022, pp. 37-42.